O'zbekiston sharoitida davlat qarzining o'sish sur'atlari va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish ehtiyoji islomiy moliya instrumentlarini joriy etish masalasini dolzarb qiladi. Mamlakatda an'anaviy moliya va islomiy moliya bozorini shakllantirish hamda rivojlantirish yo'llari orqali davlat qarz siyosatini eng maqbul holatga keltirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi islom moliyasining sukuk instrumentlarini qo'llash imkoniyatlarini baholash, ularning davlat qarzi barqarorligini ta'minlash va diversifikatsiya qilishdagi rolini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida ularni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uluyol, Azizoglu, Yumushak (2026) ta'kidlashicha, infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lsa-da, yirik loyihalarni moliyalashtirish ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda. An'anaviy qarzga asoslangan moliyalashtirish ko'pincha iqtisodiy beqarorlikka, qarz majburiyatlarining oshishiga va, ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlari cheklangan davlatlarda valyuta tebranishlariga yuqori darajada bog'liqlikka olib keladi. Shu munosabat bilan islomiy moliya instrumentlari, xususan sukuk, muqobil moliyalashtirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, Istisna–Mudaraba asosidagi sukuklar moliyaviy majburiyatlarni real aktivlar bilan bog'lab, risklarni taqsimlash mexanizmi orqali an'anaviy qarzga nisbatan ishonchli muqobil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv hukumatlar, siyosat ishlab chiquvchilar va institutsional investorlar uchun infratuzilma loyihalarida islomiy moliya vositalaridan foydalanishni rag'batlantirib, rivojlanayotgan bozorlarda yanada barqaror va inklyuziv moliyaviy tizimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Awad va Elhadeby (2026) o'z ilmiy ishlarida huquqiy, iqtisodiy va boshqa qator oqibatlariga ega bo'lgan nihoyatda dolzarb masalaga — Saudiya Arabistonida yashil islomiy obligatsiyalar (sukuk)ning huquqiy tartibga solinishi masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqotda yashil, ijtimoiy va barqaror obligatsiyalarni chiqarish bo'yicha huquqiy ko'rsatmalar tahlil qilinadi. Ushbu obligatsiyalarni chiqarishni tartibga solish maqsadida Saudiya Arabistoni Kapital bozori boshqarmasi (Capital Market Authority) nazorati ostida ishlab chiqilgan qo'llanma ularning emissiyasi uchun huquqiy asos sifatida qaraladi. Maqolada bir qator takliflar ilgari surilib, jumladan qo'llanma qoidalarini bosqichma-bosqich majburiy tusga o'tkazish hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish tavsiya etiladi.

Kallache va Ferrah (2026) tadqiqotida islomiy sukuklarning barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi samarali vosita sifatidagi rolini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bunda Malayziya va Indoneziyaning ilg'or tajribalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot metodologiyasi sukuklarning nazariy asoslarini ko'rib chiqish, ularning rivojlanishga qo'shayotgan hissasini baholash hamda duch kelinayotgan muammolarni aniqlash maqsadida tavsifiy-tahliliy yondashuvga asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sukuk sektorini muvaffaqiyatli rivojlantirish kuchli davlat irodasi, kompleks qonunchilik va tartibga solish bazasini shakllantirish hamda moliyaviy mahsulotlarda innovatsiyalarni joriy etishga bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqot Jazoir uchun infratuzilma va qayta tiklanuvchi energetika kabi muhim loyihalarni moliyalashtirishda sukuklardan foydalanish bo'yicha salmoqli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatib berdi.

AL-Mjali (2026) tadqiqotining asosiy maqsadi obligatsiyalar yoki moliyaviy sertifikatlar tushunchasini, ularni chiqarish jarayonini hamda sek'yuritizatsiya jarayonida ishtirok etuvchi turli subyektlarni o'rganishdan iborat. Tadqiqot natijalari mazkur moliyaviy instrumentlarning mohiyatini yoritib berib, obligatsiyalar yoki moliyaviy sertifikatlar emissiyasini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi mustahkam tartibga solish mexanizmining ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, huquqiy va me'yoriy tizimlar barcha manfaatdor tomonlarning huquqlarini



himoya qilish hamda jarayonning shaffofligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi qayd etiladi. Xulosa qilib aytganda, sek'yuritizatsiya jarayoni obligatsiyalar yoki moliyaviy sertifikatlarni chiqarishda muhim vazifalarni bajaruvchi bir nechta asosiy ishtirokchilarni o'z ichiga oladi.

Iqbal, Z. va Mirakhor, A. (2011) o'zlarining maqolalarida islomiy moliyaning nazariy va institutsional asoslarini tizimli ravishda tahlil qiladilar. Mualliflar islomiy moliya instrumentlarining, xususan sukukning, real aktivlarga asoslanganligi va risklarni taqsimlash tamoyillariga tayanishini ta'kidlab, ushbu xususiyatlar uni an'anaviy foizli qarz instrumentlariga nisbatan barqarorroq moliyalashtirish vositasiga aylantirishini qayd etadilar. Tadqiqotchilarning fikricha, sukuk emissiyasi davlat qarz siyosatini diversifikatsiya qilish, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda kapital bozorlariga islomiy va institutsional investorlarni jalb etish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi. Natijada davlat qarzining tarkibiy sifati yaxshilanib, uning uzoq muddatli barqarorligi kuchayadi. Ushbu yondashuv islomiy moliya instrumentlarining davlat moliyasini boshqarishdagi muqobil va istiqbolli vosita sifatidagi ahamiyatini asoslab beradi.

Asadov va Turaboev (2026) tadqiqotlarida O'zbekistonda islomiy moliya sanoatining keng joriy etilishiga to'sqinlik qilayotgan huquqiy omillarni aniqlash hamda ushbu soha uchun mos tartibga soluvchi-huquqiy bazani shakllantirishga qaratilgan muhim siyosiy tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqot umumiy qamrovga ega bo'lgani sababli uning xulosalari asosan birlamchi emas, balki ikkilamchi ma'lumotlar va avvalgi ilmiy adabiyotlar tahliliga tayangan holda shakllantirilgan bo'lib, bu tavsiyalarni kengroq konseptual doirada yoritish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya sanoatini to'liq joriy etishga to'sqinlik qilayotgan huquqiy cheklovlar mavjud bo'lib, ular faqat milliy qonunchilikning bitta sohasida emas, balki huquqiy tizimning turli bo'g'inlarida uchraydi. Shu munosabat bilan O'zbekiston hukumati uchun islomiy moliya institutlari faoliyati uchun qulay va barqaror muhitni ta'minlovchi kompleks huquqiy va tartibga soluvchi bazani ishlab chiqish zarurligi tavsiya etiladi.

Ulusoy va Ela (2025) so'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida davlatlar innovatsion qarz instrumentlarini joriy etmoqda, shular jumlasidan biri sukuk hisoblanadi. Davlat (suveren) sukuklari emissiyasi 2001-yildan buyon barqaror o'sib borib, ular nafaqat musulmon aholisi ko'pchilik bo'lgan mamlakatlarda, balki sezilarli musulmon aholiga ega bo'lgan boshqa davlatlarda ham chiqarilmoqda va umumiy emissiya hajmi 100 mlrd AQSh dollaridan oshgan. Hozirda sukuk asosan davlat qarzini boshqarish, jumladan investorlar bazasini diversifikatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani oshirish hamda qarz jalb qilish xarajatlarini kamaytirish maqsadida qo'llanilmoqda. Tadqiqot natijalari sukuk moliyalashtirish ehtiyojlarini qondirish, moliya bozorlarini rivojlantirish, qarz instrumentlari va investorlar bazasini kengaytirish hamda qarz portfeli muvozanatini ta'minlashda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo'llanish imkoniyatlari tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy tahlil usullarini uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqildi hamda nazariy asoslar, xalqaro tajriba va empirik ko'rsatkichlarga tayandi. Tadqiqotning birinchi bosqichida nazariy-tahliliy usul qo'llanilib, islomiy moliya tamoyillarining (real aktivlarga bog'liqlik, risklarni taqsimlash, riba taqiqi va shaffoflik) davlat qarz siyosati bilan o'zaro aloqasi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Ushbu bosqichda sukuk, ijara asosidagi moliyaviy instrumentning iqtisodiy va huquqiy mohiyati, shuningdek ularning AAOIFI me'yorlari va IFSB me'yorlari doirasidagi qo'llanilish mexanizmlari umumlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil metodi asosida Malayziya, Indoneziya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda davlat qarzini boshqarishda islomiy moliya vositalaridan foydalanish tajribasi o'rganildi. Ushbu davlatlarda suveren sukuk emissiyasi, huquqiy-tartibga solish mexanizmlari, islom moliyasi tamoyillari boshqaruv tizimi va kapital bozori infratuzilmasi tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashuv imkoniyatlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil orqali islomiy moliya instrumentlarining davlat qarz barqarorligini ta'minlashdagi ustunliklari va cheklovlari baholandi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida davlat qarz barqarorligini baholash maqsadida asosiy makroiqtisodiy indikatorlar, jumladan davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (qarz/YAIM), budjet daromadlariga (qarz/budjet daromadlari) va tashqi savdo tushumlariga (qarz/eksport daromadlari) nisbati tahlil qilindi. Shuningdek, sukuk asosidagi moliyalashtirishning samaradorligini baholashda investorlar ishonchi darajasi, kapital bozorining chuqurligi va likvidligi, shuningdek huquqiy va institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi muhim mezonlar sifatida e'tiborga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy-tahliliy bosqich natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya tamoyillari davlat qarz siyosatiga nafaqat normativ-huquqiy, balki aniq moliyaviy va matematik ustunliklar orqali ta'sir ko'rsatadi. Real aktivlarga bog'liqlik,



risklarni taqsimlash va shaffoflik prinsiplari qarz instrumentlarining iqtisodiy qiymati, xarajat tuzilmasi va fiskal xavf profilini tubdan o'zgartiradi.

Davlat qarz portfeli samaradorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri — qarzning o'rtacha tortilgan qiymati (Weighted Average Cost of Debt, WACD) hisoblanadi:

$$WACD = \sum_{i=1}^n W_i * r_i$$

bu yerda:

- w_i — qarz instrumentining umumiy qarz portfelidagi ulushi,
- r_i — qarz instrumentining samarali foiz stavkasi (yield).

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, sukuk emissiyasi davlat qarz portfeliga kiritilganda WACD ko'rsatkichi barqarorlashadi, hatto ayrim holatlarda nominal foiz stavkasi an'anaviy obligatsiyalarga teng yoki biroz yuqori bo'lsa ham. Buning sababi sukukning risk-adjusted cost ko'rsatkichining pastligidir.

Qarz qiymatini baholashda faqat nominal stavkalar emas, balki risk omillari ham taxminiy inobatga olinadi:

$$RA-WACD = \sum_{i=1}^n W_i * (r_i + p_i)$$

bu yerda:

- p_i — kredit, valyuta, qayta moliyalash va likvidlik risklari uchun risk premium.

Nazariy va empirik tahlil natijalariga ko'ra, sukuk asosidagi moliyalashtirishda:

- kredit riski (default risk) pastroq,
- valyuta riski ko'pincha mahalliy valyutada emissiya orqali kamaytiriladi,
- qayta moliyalash riski uzoq muddatli ljarah va istisna' sukuklar orqali pasayadi.

Natijada:

$$P_{sukuk} < P_{obligatsiya}$$

bu esa iqtisodiy jihatdan sukukni arzonroq qarzga aylantiradi.

Davlat moliyachisi uchun muhim farqlardan biri — nominal foiz xarajati va iqtisodiy (haqiqiy) xarajat o'rtasidagi taxminiy tafovutdir:

$$Economic\ Cost = r - g + \Delta FX + \Delta Risk$$

bu yerda:

- r — nominal qarz stavkasi,
- g — real iqtisodiy o'sish sur'ati,
- ΔFX — valyuta kursi o'zgarishidan kelib chiqadigan xarajat,
- $\Delta Risk$ — fiskal va refinans risklari.

Sukuk real sektor bilan bog'langanligi sababli:

- iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ($g \uparrow$),
- valyuta va fiskal risklarni kamaytiradi ($\Delta FX \downarrow$, $\Delta Risk \downarrow$).

Natijada sukuk bo'yicha iqtisodiy qaytuv an'anaviy obligatsiyalarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Qarz barqarorligi quyidagi tenglama orqali baholanadi:

$$\Delta \left(\frac{D}{Y} \right) = \frac{(r-g)}{1+g} * \frac{D}{Y} - \frac{Primary\ Balance}{Y}$$

bu yerda:

- D/Y — qarz/YAIM nisbati,
- PB — birlamchi byudjet saldos.

Nazariy natijalar shuni ko'rsatadiki, sukuk orqali moliyalashtirilgan infratuzilma va real sektor loyihalari YAIM o'sishini tezlashtiradi, bu esa $r-g$ tafovutini qisqartiradi va qarz/YAIM nisbatini barqarorlashtiradi.

AAOIFI me'yorlariga muvofiq sukuk tuzilmalari:

- shaffof aktiv reyestrini,
- Islom moliyasi tamoyillari Supervisory Board nazoratini,
- axborot ochiqqligini talab qiladi.

Bu esa:

- investorlar ishonchini oshiradi,
- suveren reytingga ijobiy ta'sir ko'rsatadi,
- qarz bozorida talabni kengaytiradi.

Ijarah-sukuk. Ijarah-sukuk real aktivni ijaraga berish asosida shakllanadigan moliyaviy instrument hisoblanadi. Ushbu tuzilmada sukuk egalari (investorlar) aktivning o'ziga emas, balki undan foydalanish huquqiga egalik qiladi va ijara to'lovlari orqali barqaror daromad oladi.

Iqtisodiy jihatdan Ijarah-sukuk quyidagi xususiyatlarga ega:

- real aktivlar bilan ta'minlangan bo'lib, spekulativ moliyalashtirishdan holi;
- pul oqimlari (cash flow) ijara to'lovlari orqali shakllanadi;



• daromad darajasi nisbatan barqaror va oldindan prognoz qilinadi;
• davlat infratuzilma loyihalari (yo'llar, aeroportlar, davlat binolari, energetika obyektlari)ni moliyalashtirishda samarali hisoblanadi.

Davlat qarz siyosati nuqtai nazaridan Ijarah-sukuk qarzni real sektor bilan bog'lab, fiskal barqarorlikni kuchaytiradi.

AAOIFI Islom moliyasi tamoyillari meyorlariga va IFSB meyorlariga muvofiq, Ijarah-sukukda:

- sukuk egalari ijaraga berilayotgan aktivdan foydalanish huquqining qonuniy egasi hisoblanadi;
- emitent (odatda davlat yoki davlatga tegishli tashkilot) aktivni sukuk egalari nomidan ijaraga oluvchi sifatida qatnashadi;
- aktivga egalik, ijaraga berish shartnomasi va daromad taqsimoti shaffof huquqiy asosda rasmiylashtiriladi;
- asosiy risklar (aktivning mavjudligi, ishlashi bilan bog'liq risklar) investorlar bilan Islomiy Ijara shartnomasiga muvofiq taqsimlanadi.

Malayziya, Turkiya va Indoneziya tajribasi O'zbekiston sharoitlari bilan qiyoslanib, islomiy moliya instrumentlarining davlat qarz siyosatiga institutsional va amaliy ta'siri asosiy yo'nalishlar kesimida tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sukuk va boshqa Islom moliyasi tamoyillariga muvofiq moliyaviy vositalarning samarali joriy etilishi, avvalo, mustahkam huquqiy asos, rivojlangan kapital bozori va yuqori darajadagi institutsional muhit mavjudligi bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy asos yo'nalishida Malayziya va Indoneziyada sukuk emissiyasini tartibga soluvchi maxsus qonunlar hamda Islom moliyasi tamoyillari boshqaruv tizimi shakllangan bo'lsa, Turkiyada Ijarah asosidagi "Kira Sertifikalari" alohida qonun bilan tartibga solingan.

Kapital bozori infratuzilmasi nuqtai nazaridan, Malayziya global sukuk markazi sifatida shakllangan bo'lib, Kuala-Lumpur xalqaro investorlar uchun yuqori likvidlik va shaffoflikni ta'minlaydi. Indoneziya va Turkiyada ham sukuk ichki va tashqi bozorlarda faol muomalaga chiqarilgan. O'zbekistonda esa kapital bozori rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lib, sukuk savdosi amaliyotga joriy etilmagan. Natijada davlat qarzini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda. Davlat qarzini diversifikatsiya qilish yo'nalishida tahlil shuni ko'rsatadiki, Malayziyada sukuk YAIMning sezilarli qismini moliyalashtiruvchi muhim instrumentga aylangan. Turkiyada sukuk tashqi qarzni boshqarishda strategik vosita sifatida qo'llanilsa, Indoneziyada u byudjet taqchilligini qoplashda asosiy manbalardan biridir. O'zbekistonda esa davlat qarzi asosan an'anaviy obligatsiyalar va xalqaro moliya institutlari kreditlariga tayanadi, bu esa qarz portfelining tuzilmasini kam diversifikatsiyalangan holatda saqlab qolmoqda.

Investorlar ishonchi masalasida Malayziya va Indoneziya tajribasi sukuk emissiyasining o'z tartib hujjarlariga va standartlariga muvofiqligi, shaffoflik va barqaror huquqiy muhit investor talabini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi. Shu bois, qayd etilganidek, shaffoflikni kuchaytirish va reyting mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Institutsional muhit kesimida rivojlangan mamlakatlarda islomiy banklar, takaful kompaniyalari va sukuk bozori o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi.

Davlat qarz barqarorligi nuqtai nazaridan, qiyosiy tahlil sukuk emissiyasi uzoq muddatli fiskal barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Malayziya va Indoneziyada sukuk qarz yukini nazorat qilish va qarz muddatlari muvozanatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda esa qarz/YAIM nisbati o'sish tendensiyasida bo'lib, sukukdan foydalanilmasligi fiskal risklarni oshiruvchi omil sifatida baholanadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya instrumentlarini tizimli joriy etish O'zbekiston uchun davlat qarz siyosatini diversifikatsiya qilish, investorlar bazasini kengaytirish va qarz barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik imkoniyatlarni yaratadi. Biroq bu jarayon mustahkam huquqiy asos, rivojlangan kapital bozori va kuchli institutsional muhitni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Empirik tahlil natijalari davlat qarzining YAIMga nisbati iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Qarz/YAIM ko'rsatkichining barqaror darajada saqlanishi davlatning qarz yukini real iqtisodiy ishlab chiqarish hajmi orqali qoplash imkoniyatini bildiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, real sektor bilan bog'liq bo'lgan sukuk instrumentlari, ayniqsa Ijarah-sukuk va istisna'-sukuk, jalb etilgan mablag'larning ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilishi hisobiga YAIM o'sishini qo'llab-quvvatlagan. Natijalardan ko'rinadiki, an'anaviy foizli qarz instrumentlari bilan taqqoslaganda, sukuk asosidagi moliyalashtirish qarz/YAIM nisbatining keskin oshishiga olib kelmagan. Bu holat sukuk orqali jalb qilingan resurslarning iste'mol xarajatlariga emas, balki investitsion faoliyatga yo'naltirilgani bilan izohlanadi. Shunday qilib, sukuk instrumentlari qarz barqarorligini saqlashda nisbatan samaraliroq moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Davlat qarzining byudjet daromadlariga nisbati fiskal barqarorlikni baholashda muhim indikator hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sukuk asosida jalb qilingan qarz majburiyatlari bo'yicha to'lovlar odatda oldindan rejalashtirilgan va real pul oqimlari bilan ta'minlangan bo'ladi. Bu holat byudjetga tushadigan yukni kamaytiradi va qarzni xizmat ko'rsatish xarajatlarining prognoz qilinuvchanligini oshiradi. Moliyaviy natijalarga ko'ra, Ijarah-sukuk bo'yicha to'lovlar ijara daromadlari hisobidan qoplanishi natijasida byudjet daromadlariga bevosita bosim kamroq bo'lgan. Murabahah-sukukda esa daromad savdo marjasi sifatida shakllangan bo'lib, qisqa va o'rta



muddatda byudjet intizomini saqlashga yordam bergan. Natijada, qarz/byudjet daromadlari nisbatining keskin yomonlashuvi kuzatilmagan.

Tashqi qarz barqarorligini baholashda qarzning eksport daromadlariga nisbati muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eksportga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishda istisnā-sukukdan foydalanish tashqi savdo tushumlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, sanoat va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan sukuk mablag'lari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, eksport salohiyatining ortishiga xizmat qilgan. Natijada, qarz/eksport daromadlari nisbati nisbatan barqaror saqlanib, tashqi qarzga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaxshilangani kuzatildi. Bu holat sukuk asosidagi moliyalashtirishning tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Sukuk asosidagi moliyalashtirish samaradorligini baholashda nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, balki institutsional va bozor omillari ham muhim mezon sifatida ko'rib chiqiladi. Investorlar ishonchi darajasining yuqoriligi sukuk emissiyalariga bo'lgan talabning barqarorligini ta'minlagan. Bu ishonch, avvalo, shaffof huquqiy asos, Islom moliyasi tamoyillari talablariga muvofiqlik va davlat kafolatlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Kapital bozorining ishonchliligi va likvidligi sukuk instrumentlarining ikkilamchi bozorda erkin muomalada bo'lishini ta'minlab, investorlar uchun chiqish imkoniyatlarini kengaytirgan. Shu bilan birga, huquqiy va institutsional muhitning rivojlanganlik darajasi — xususan, sukukni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy bazaning mavjud bo'lishligi va Islom moliyasi tamoyillari nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi — moliyalashtirish xatarlarini shartnomalar tabiatiga ko'ra kamaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya instrumentlari, xususan sukuk, davlat qarz siyosatini optimallashtirishda nafaqat muqobil, balki strategik ahamiyatga ega moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Nazariy tahlil va empirik natijalar asosida aniqlanishicha, real aktivlarga bog'langanlik, risklarni taqsimlash, riba taqiqi va shaffoflik kabi islomiy moliya tamoyillari davlat qarzining makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Malayziya, Turkiya va Indoneziya tajribasi sukuk instrumentlarining davlat qarz portfelida samarali qo'llanilishi qarz/YAIM, qarz/byudjet daromadlari hamda qarz/eksport daromadlari kabi asosiy ko'rsatkichlarni nisbatan barqaror darajada ushlab turishga yordam berishini tasdiqlaydi. Xususan, sukuk asosidagi moliyalashtirishning real iqtisodiy loyihalar bilan bog'liqligi davlat qarzining iqtisodiy qaytuvini oshirib, fiskal xavflarning uzoq muddatli shakllanish ehtimolini kamaytiradi. Riskga moslashtirilgan qarz qiymati (risk-adjusted WACD) tahlili shuni ko'rsatadiki, sukuk ba'zi hollarda nominal jihatdan qimmatroq bo'lsa-da, iqtisodiy va fiskal barqarorlik nuqtayi nazaridan an'anaviy foizli qarz instrumentlariga nisbatan samaraliroq hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan tahlil asosida aniqlanishicha, islomiy moliya instrumentlarini joriy etishning asosiy cheklovlari huquqiy-institutsional bazaning yetarlicha shakllanmaganligi, kapital bozorining chuqurligi va likvidligining pastligi hamda xalqaro investorlar ishonchi mexanizmlarining zaifligi bilan bog'liq. Shunga qaramay, mavjud makroiqtisodiy barqarorlik, davlat qarzining hozirgi nisbatan mo'tadil darajasi hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik imkoniyatlari islomiy moliya instrumentlarini, jumladan sukukni davlat qarz siyosatiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Yuqoridagi tahlil va natijalardan kelib chiqib, quyidagi asosiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur. O'zbekistonda "Islomiy moliya to'g'risida" maxsus qonunni qabul qilish, sukuk emissiyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda mustaqil va institutsional jihatdan kuchli Islom moliyasi maxsus kengashifaoliyatini yo'lga qo'yish islomiy moliya instrumentlarining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kapital bozorini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Sukuk emissiyasi va muomalasi uchun texnik infratuzilmani yaratish, ikkilamchi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda AAOIFI va IFSB kabi xalqaro standartlarga mos savdo tizimlarini rivojlantirish kapital bozorining chuqurligi va likvidligini oshiradi.

Uchinchidan, investorlar ishonchini kuchaytirish zarur. Shaffoflikni oshirish, davlat qarzi va sukuk loyihalari bo'yicha muntazam va ochiq axborot taqdim etish, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda ko'p tomonlama moliya institutlari (Islom taraqqiyot banki, OIC institutlari) bilan hamkorlikni mustahkamlash sukukka bo'lgan talabni sezilarli darajada oshiradi.

To'rtinchidan, davlat qarz siyosatida diversifikatsiya tamoyilini kuchaytirish lozim. An'anaviy obligatsiyalar bilan bir qatorda sukuk instrumentlarini qo'llash qarz portfelining risk profilini muvozanatlashtiradi, foiz stavkalari va valyuta xatarlariga bog'liqlikni kamaytiradi hamda uzoq muddatli fiskal barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, islomiy moliya instrumentlarining ijtimoiy va barqaror rivojlanishga qo'shadigan hissasini inobatga olish zarur. Sukuk orqali moliyalashtiriladigan infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy loyihalar



nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshiradi, balki bandlikni ko'paytirish, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot yakunida shuni ta'kidlash mumkinki, islomiy moliya instrumentlarini, xususan sukukni kengaytirish O'zbekiston uchun davlat qarz siyosatini optimallashtirish, fiskal va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni jadallashtirishning ilmiy asoslangan va istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu instrumentlarni bosqichma-bosqich joriy etish O'zbekistonning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. AL-Mjali, A. H. T. (2026). The Mechanism of Issuing Bonds and Financial Certificates and the Parties Involved in the Process. In *Business Resilience and Business Innovation for Sustainability: The Double-Edged Role of Artificial Intelligence and Other Disruptive Technologies* (pp. 509-521). Cham: Springer Nature Switzerland.
2. Asadov, A., & Turaboev, I. (2023). Legal challenges in establishing the Islamic capital market in Uzbekistan. *ISRA international journal of Islamic Finance*, 15(4), 45-63.
3. Awad, H. M., & Elhadey, A. S. (2026). Legal regulation of green and sustainable bonds (SUKUK) A case study of the Saudi capital market authority. *Perinatal Journal*, 34(1), 511-519.
4. Iqbal, Z. & Mirakhor, A. (2011). *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. Singapore: John Wiley & Sons. 210-245. 358.
5. KALLECHE MERYEM, Dr FERRAH AHLEM. "Islamic Sukuk and their Developmental Role in the Economy–The Malaysian and Indonesian Experience as a Model." *Pegem Journal of Education and Instruction* 16, no. 1 (2026): 398-413.
6. Ulusoy, A., & Ela, M. (2025). Sukuk and Public Debt Management: General Assessment and the Way Forward. *Bilimname*, (53), 665-696.
7. Uluyol, B., Azizoglu, A., & Yumuşak, I. G. (2026). Financing Infrastructure Development in Emerging Markets: Bonds or Sukuk? In *Infrastructure Finance and Sustainable Governance* (pp. 13-30). Cham: Springer Nature Switzerland.
8. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank sayti
9. www.imf.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
10. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>